

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026- yil yanvar- mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Farg'ona viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 188,2 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5 0431 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 18,8 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 15,8 mlrd so'mni tashkil qildi.

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Farg'ona (680,6 mlrd so'm), Oltiariq (456,1 mlrd so'm), Beshariq (343,1 mlrd so'm), Qo'shtepa (338,9 mlrd so'm), Quva (326,2 mlrd so'm) va O'zbekiston (314,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga So'x (100,7 mlrd so'm), Qo'qon sh (121,0 mlrd so'm) va Marg'ilon sh (131,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Farg'ona viloyati	5 188,2	104,4
Farg'ona sh	227,0	104,1
Qo'qon sh	121,0	102,3
Quvasoy sh	190,3	101,0
Marg'ilon sh	131,8	101,1
tumanlar:		
Oltiariq	456,1	106,5
Qo'shtepa	338,9	121,9
Bag'dod	314,2	101,4
Buvayda	305,8	102,9
Beshariq	343,1	103,8
Quva	326,2	103,3
Uchko'prik	248,9	104,6
Rishton	294,2	103,1
So'x	100,7	104,3
Toshloq	183,0	104,2
O'zbekiston	314,3	104,4
Farg'ona t	680,6	102,6
Dang'ara	252,0	101,2
Furqat	220,8	102,9
Yozyovon	139,3	101,9

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qo'shtepa (121,9 %), Oltiariq (106,5 %), Uchko'prik (104,6%), O'zbekiston (104,4 %) va So'x (104,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Quvasoy sh (101,0 %), Marg'ilon sh (101,1 %), Dang'ara (101,2%) va Yozyovon (101,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 927,1 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 303,7 mlrd so'mni (113,8 %), chorvachilik mahsulotlari 4 623,5 mlrd so'mni (103,2 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (655,5 mlrd so'm), Oltiariq (444,1 mlrd so'm), Beshariq (3104,0 mlrd so'm) va O'zbekiston (306,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga So'x (97,5 mlrd so'm), Qo'qon sh (116,6 mlrd so'm) va Marg'ilon sh (128,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shtepa (121,2 %), Farg'ona (105,9 %), Oltiariq (105,2 %) va O'zbekiston (103,2 %) tumanlarida qayd etildi. Qo'qon sh (100,3 %), Yozyovon (100,7 %), Marg'ilon sh (101,2 %) da esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 78,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,2 % i fermer xo'jaliklariga, 10,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (647,1 mlrd so'm), Oltiariq (342,6 mlrd so'm), Marg'ilon sh (342,6 mlrd so'm), Qo'shtepa (300,2 mlrd so'm) va Beshariq (296,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga So'x (96,8 mlrd so'm), Qo'qon sh (112,1 mlrd so'm) va Yozyovon (121,8 mlrd so'm) tumanlarida keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shtepa (122,1 %), Qo'qon sh (107,2 %), Farg'ona (105,7 %), Quvasoy sh (104,1 %) qayd etildi. Quva (100,4 %), Buvayda (100,6 %), Farg'ona sh (100,6 %) va Bag'dod (100,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 44,4 ming tonna go'sht, 256,9 ming tonna sut, 122,1 mln dona tuxum, 99,8 tonna qirqib olingan jun va 1 008,6 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3 % ni, sog'ib olingan sut – 106,2 % ni, olingan tuxum – 108,4 % ni, qirqib olingan jun – 107,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 105,2 % ni tashkil qildi.



2026- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 81,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 14,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 18,2 % i fermer xo'jaliklari, 79,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 25,0 % i fermer xo'jaliklariga, 48,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 23,7 % i fermer xo'jaliklari, 73,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 80,4 % i fermer xo'jaliklariga, 8,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2026- yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-mart 2026- y	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	44,4	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,1	113,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	36,0	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,3	100,3
Sut, ming tonna	256,9	106,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	46,9	191,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	204,1	95,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,9	144,1
Tuxum, mln dona	122,1	108,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	30,5	116,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	59,6	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	32,0	118,4



tashkilotlar

Jun, tonna	99,8	107,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23,6	107,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	73,8	106,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,4	123,5
Baliq, tonna	1 008,6	105,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	810,5	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	87,6	107,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	110,5	117,1

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Farg'ona viloyati	44 388,3	256 939,0	122 064,2
Farg'ona sh	2 416,1	3 373,7	5 426,7
Qo'qon sh	1 522,8	1 889,8	704,3
Quvasoy sh	1 718,2	7 260,9	19 521,9
Marg'ilon sh	1 835,7	1 168,9	1 472,0
tumanlar:			
Oltiariq	3 176,4	20 660,9	2 860,0
Qo'shtepa	2 398,1	21 918,5	7 226,4
Bag'dod	2 683,9	16 882,0	9 215,8
Buvayda	2 438,3	17 367,0	4 293,8
Beshariq	2 364,8	19 767,6	19 062,8
Quva	2 426,4	16 816,5	4 955,3
Uchko'prik	2 042,1	13 515,9	3 993,1
Rishton	2 402,2	15 950,2	4 459,0
So'x	658,1	8 193,1	1 985,7
Toshloq	1 469,9	10 648,8	3 168,6
O'zbekiston	2 708,6	16 736,8	10 252,8
Farg'ona	7 511,4	25 680,9	5 884,4
Dang'ara	1 907,3	16 102,5	9 042,0
Furqat	1 712,6	14 457,4	5 848,9
Yozyovon	995,5	8 547,8	2 690,8



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Oltiariq (101,5 mlrd so'm), Quva (24,2 mlrd so'm), Rishton (22,2 mlrd so'm), Qo'shtepa (19,2 mlrd so'm) va Bag'dod (15,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga So'x (0,6 mlrd so'm) Marg'ilon (0,8 mlrd so'm) va Qo'qon (4,5 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Marg'ilon sh (156,4 %), Farg'ona sh (148,6 %), Dang'ara (139,6 %), Beshariq (132,0 %) va Buvayda (128,7 %) tumanlarida qayd etildi. Qo'qon sh (41,1 %), Yozyovon (92,1 %), Bag'dod (109,1 %) va Qo'shtepa (109,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	9 894,9	119,1
Farg'ona sh	609,7	150,6
Qo'qon sh	249,6	102,5
Quvasoy sh	170,0	103,7
Marg'ilon sh	35,4	177,9
tumanlar:		
Oltiariq	5 218,3	114,1
Qo'shtepa	353,0	101,8
Bog'dod	330,9	100,7
Buvayda	135,3	186,9
Beshariq	235,1	207,0
Quva	860,2	118,8
Uchko'prik	438,5	113,9
Rishton	477,4	105,1
So'x	7,0	225,8
Toshloq	262,0	151,3
O'zbekiston	337,8	130,5
Farg'ona	32,9	329,0
Dang'ara	134,5	362,5
Furqat	7,1	-
Yozyovon	0,1	-



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (52,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Quva (8,7 %), Farg'ona sh (6,2 %), Rishton (4,8 %), Uchko'prik (4,4 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,1 %), Furqat (0,1 %) va Farg'ona (0,3 %) tumanida kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Dang'ara (362,5 %), Farg'ona (329,0 %), Buvayda (107,2 %), So'x (225,8 %), Beshariq (207,0 %), Buvayda (186,9 %) hamda Toshloq (151,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	152,8	20,2
Farg'ona sh	2,0	-
Qo'qon sh	6,4	1,0
Quvasoy sh	-	-
Marg'ilon sh	-	-
tumanlar:		
Oltiariq	25,5	-
Qo'shtepa	-	-
Bag'dod	6,5	542,5
Buvayda	25,0	-
Beshariq	2,2	-
Quva	1,2	81,4
Uchko'prik	29,9	-
Rishton	40,0	370,4
So'x	-	-
Toshloq	-	-
O'zbekiston	3,0	-
Farg'ona	7,2	149,2
Dang'ara	4,0	-
Furqat	-	-
Yozyovon	-	-

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Rishton (26,2 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Uchko'prik (19,5 %), Oltiariq (16,7 %), Buvayda (16,4 %), Dang'ara (2,6 %) tumanlarida qayd etildi.



Past ko'rsatkichlar Quva (0,8 %), Farg'ona sh (1,3 %), Beshariq (1,4%) O'zbekiston (2,0%), tumanlarida kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bag'dod (542,5 %), Rishton (370,4 %), Farg'ona (149,2 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 041,1 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1-aprel holatiga nisbatan 5,1 % ga kam), sigirlar 396,2 ming boshga, qo'y va echkilar 900,4 ming boshga (94,3 % ga kam), parrandalar 8 718,7 ming boshga (0,3 % ga kam) yetdi.

2026- yilning 1- aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 041,1	94,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	80,2	95,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	950,1	94,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,8	112,7
shundan sigirlar	396,2	98,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	33,8	98,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	357,5	98,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,9	113,4
Qo'y va echkilar	900,4	94,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	85,4	93,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	808,4	94,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,6	81,5
Otlar	10,5	95,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,5	87,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7,9	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	69,2
Parrandalar	8 718,7	99,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 496,9	110,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 506,4	98,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 715,4	96,2



2026- yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,5 % i fermer xo'jaliklariga, 90,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 9,5 % i fermer xo'jaliklariga, 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 17,2 % i fermer xo'jaliklariga, 63,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026- yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Farg'ona viloyati	1 041,1	900,4	8 718,7
Farg'ona sh	13,8	14,9	555,2
Qo'qon sh	5,8	8,5	68,6
Quvasoy sh	31,3	23,9	866,2
Marg'ilon sh	10,3	14,1	74,4
tumanlar:			
Oltiariq	68,6	43,3	266,0
Qo'shtepa	57,7	53,1	437,5
Bag'dod	63,3	55,8	719,9
Buvayda	66,6	58,6	405,3
Beshariq	86,1	65,9	1131,8
Quva	80,2	93,2	512,1
Uchko'prik	77,2	53,5	554,0
Rishton	68,7	62,7	405,4
So'x	25,4	25,9	84,4
Toshloq	59,2	54,6	356,1
O'zbekiston	77,8	69,2	500,1
Farg'ona	78,3	60,8	637,0
Dang'ara	84,7	56,1	449,4
Furqat	48,2	37,6	378,7
Yozyovon	37,9	48,7	316,6

VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://farstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar.html>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Sultonov
73 241-98-30

Manzil:

